

**SHE'RIYATDA FONOPOETIK IFODA**  
(Zulfiya Mo'minova ijodi misolida)

*To`rayeva Azima Izotullo qizi.*

*Peshku tumanidagi 18-umumiy o`rta ta`lim maktabi*

*Ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** Fonopoetika-tilshunoslikda nisbattan yangi soha bo`lib, yangicha izlanishlar natijasidir. Ushbu sohani lirik asarlar orqali tadbiq etish masalasi fanning bugungi ravnaqiga zamin yaratadi.

**Kalit so`zlar :** Lingvopoetika, fonetika, poetika, lirika, jamiyat.

Tilshunoslik nazariyasidan ma'lumki, lingvopoetika – tilshunoslik va adabiyotshunoslik oralig`ida shakllangan soha. Tilshunoslikning boshqa sohalaridan farqi shundaki, bunda tadqiqot manbai badiiy asarlar hisoblanadi. Adabiyotni til jihatidan o`rganiladi. Lingvopoetika badiiy asarlarda qo`llanilgan lingvistik birliklarning badiiy-estetik vazifalarini, tilning konnotativ funksiyasini o`rganadi. Badiiy til keng qamrovli obyekt sifatida funksional darajalangan qismlarga fragmentlarga bo`linish xususiyatiga ega. Biroq amalda ushbu obyektning fragmentlarini badiiy nutq tahliliga beriladi. Demak, badiiy nutq keng tushuncha bo`lib badiiy asar tili badiiy nutqning bir ko`rinishidir. U tilning ekspressiv vazifasini o`z ichiga olgani uchun til sistemasining barcha sath birliklarini qamrab oladi. Shundan kelib chiqib, lingvopoetika fonopoetika, leksopoetika, sintaktik poetika kabi turlarga bo`linadi. Lingvopoetikaning vazifasi ushbu sohalarni alohida-alohida o`rganish va ularning o`zaro munosabatini ham yoritib berishdan iborat. Jumladan, fonetik-fonologik sathda bir xil tovushlar bir xil bo`g`inlarning takrorlanib kelib, assonans(bir xil unilarning takrorlanib kelishi), alliteratsiya(bir xil undoshlarning takrorlanib kelishi) hodisalarini yuzaga keltirishi hamda ta`sirchanlikni yuzaga keltiruvchi vosita sifatida xizmat qilishi o`rganiladi.

Fonografik stilistika fonetik stilistika va grafik stilistika oralig`idagi fandır. Fonostilistik vositalar va ularning nutqda qo`llanishi haqidagi fikrlar ilk bor Ayub G`ulomov tomonidan aytilgan. Olim fonetik vositalarda uslubiy imkoniyatlar ko`pligi, ayrim so`zlarning ohang va fonetik qiyofasini o`zgartirish orqali hissiy ta`sirchanlik paydo bo`lishini qayt etadi. Fonetik vositalar: nutq tovushlari, urg`u, ohang, ton, tovush tenbiri. Grafik vositalar- harflar. Badiiy matnni tahlil qilish jarayonida fonetik birliklarning estetik xususiyatlariga alohida e`tibor qaratmoq lozim. Sheriy matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi. Chunki she`rda o`ziga xos jozibador ohang bo`ladi. Bu ohangdorlikka

tovushlarning uslubiy qo'llash natijasida erishiladi. She'riyatda alliteratsiya (undoshlar takrori), assonans (unlilar takrori), gemenatsiya (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik usullardan foydalaniladi. Nasrda unlilarni cho'zish yuqoridagi vositalar, shuningdek tovushlarni orttirish yoki tovush tushurish kabi vositalardan ham foydalaniladi.

Tildagi fonemalarning asosiy vazifasi so'z ma'nolarini farqlash bilan birga stilistik-ekspressiv va apellyativ vazifalarni ham bajaradi. Tinglovchi fonemalardagi bu xususyatlarni tovushlar vositasida qabul qiladi. Undosh tovushlar o'zining hosil bo'lish o'rni va usuli hamda tovush miqdorining ko'pligiga ko'ra unli tovushlardan farqlanadi. Talaffuzda undosh tovushlarning ikkilanish, takror qo'llash, tushurib qoldirish, so'zda ularning o'rnini almashtirish; yozma nutqda esa ushbu talaffuz hodisalarni aynan aks ettirish fonografik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Fonografik jihatdan so'zdagi bir undoshning takror miqdori u ifodalab kelayotgan ekspressiv bo'yoq miqdorini ifodalaydi, natijada konnotativ ma'no yuzga chiqadi. Undosh tovushning so'z boshida ikkilantirilishi qahramonga hos nutqiy kamchilik yoki o'ta hayajonlanganligini ifodalasa, so'z oxirida undoshning takrori shu so'zning cho'zib talaffuz qilinganligini bildiradi. Badiiy nutqda keng qo'llaniladigan fonetik usullardan yana biri geminatsiyadir. Ya'ni bunda tovushlarni qavatlash orqali poetik aktualizatsiya sodir bo'ladi.

Shuningdek, badiiy nutqda ohangning ifodalanishi muhim. Badiiy nutqda muhimvazifa bajaruvchi vositalar:

1. Ohang
2. Urg`u
3. Pauza
4. Alliteratsiya
5. Assonas
6. Tovush takrori
7. Tovushga taqlid

Istalgan nutq o'ziga xos intonatsion butunlikka ega bo'lib, nutqning sintaktik tuzilishi, so'zlarning gapdagi o'rni kabilardan tashkil topadi.

Zulfiya Mo'minova ijodini turli tomonlardan o'rganish mumkin. Shoiri ijodi fonopoetik tahlil uchun ham asos bo'la oladi. Ijodkor, ayniqsa, tovushlar takroridan foydalanib, lirik asarlarda go'zal qochirimlar va so'z o'yinlarini yaratgan. Quyida keltirilgan misollar muallifning "Ayolga baxt bering, saodat bering" to'plamidan olingan.

**“S” tovushi takrori :**

Salom setoralar , sarhush havolar,  
Sevgilar assalom , salom vafolar.  
Salom sayyoralar , salom samolar,  
Mustaqilman , uchib yuribman.(26-sahifa.)

Ushbu parchadagi uch misradagi “S” tovushining ketma-ket qo’llanilishi to’rtinchi misradagi “Mustaqilman” so’zidagi tovushlar bilan o’zgacha hamohanglik kasb etgan. She’r o’z mazmun –mohiyati bilan shukronalik hissiga yo’g’rilgan. Bunda ilhaq kutilgan istiqloq quvonchi tarannum etilgan.

Siz so’zni singlim deb qizg’ongan kezlar,  
So’zfurush narxini naq bozordan aytdi.(34-sahifa.)

Ushbu misralar “Oybek domlaga” nomli she’rdan parcha bo’lib, unda Oybekka ehtirom , uning boshidan kechirgan kechmishlarini xotirlash orqali, unga hamrozklik bildirish aks ettirilgan. Shu bois yuqoridagi tovush takrorida Oybekona qochirimni sezish mumkin. So’zni “Singlim” deya suyish faqat Oybekka xos bo’lgan benazirlikdir.

Seni ko’rgan kundan ziyolandidim men ,  
Sim –sim sabolandidim , sadolandidim men.(70-sahifa.)

Shoira ning ushbu she’ri lirikaning “Intim lirika “mansub bo’lib, unda qahramon o’z ko’ngil egasiga “Birda Alloh dedim , birda sen dedim” deya murojaat etadi. Jumladagi “Sabo” va “Sado” so’zlari esa, qalb izhorini sohibiga yetkazish vositasi sifatida qo’llanilgan.

**“K” tovushi takrori:**

Ko’ngillarni ko’zlab kelgan shubha-yu gumon,  
Saksovullar orasida qolar oyoqdan.

“Bu ovulning yonidagi...” deb boshlanuvchi she’rdan olingan yuqoridagi misralarda “K” tovushi yetakchilik qiladi.” Ko’ngil “,”Kelin”, “Kovush “, “Ko’rpa” kabi qator so’zlarni qo’llarkan, ushbu she’rda urush yillaridagi o’zbek ayoli umumlashma obrazini tasvirlab beradi:

Kelinlari novvot ta’mlil uyqularini,  
Ko’rpasiga o’rab tongda yig’ib qo’yadi.

“Novvot tamli uyqu”ni “Yig’ib qoyish”ning esa sababi- mehnat! Chunki urushga ketgan er yigitlarnind dala-yu shiyponlardagi o’rnini yosh kelinlar-u, gul qizlarning egallashi tabiiy bir majburiyat edi. Zulfiya Mo’minovaning she’rlarida holat va kechinmalar orqali ishonaarli va ifodali chizgilarda aks etgan tuyg’ular shu kabi haqiqatlarni-da akslantiradi.

Aytish joizki, Zulfiya Mo’minova o’z she’rlarida “Tashbeh “ san’atidan unumli va o’rinli foydalanadi. Ahamiyatlisi, uning ijodiy topilmalari isbot talab qilmaydigan , go’yo barchamiz guvohlik qilgan-u , uni faqat ijodkorona qalb va nigoh bilan ilg’ash mumkin bo’lgan voqea-hodisalardir:

Maysalarni yopib qo’l-oyog’iga ,  
Dalalar uxlaydi, yobon uxlaydi.

Bahor faslidagi tabiat hodisasi hisoblangan maysalarning unib chiqishi she’riy misralarda ajib sirlilik kasb etgan. Yoki:

Alvon ko’ylak kiygan qizni sog’inib,  
Alvon ko’ylak kiygan ufq uxlaydi.

Bunda ufqning quyosh botishdagi holati-alvon libosga qiyoslanmoqda. Go’yoki, u alvon rangdagi ko’ylak kiygan qizni sog’inganidan o’zi ham shu zayl qiyofalangandek.

Xulosa qilib aytganda , fonopoetika lingistikaning alohida sohasi bo’bib , undagi hodisalar lisoniy birliklar va badiiy-lirik asarlarning jozibadorligiga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Zulfiya Mo`minova „Beshiklarni asragin, dunyo“ (1988)
2. Zulfiya Mo`minova „Samoga sochilgan yulduzlar“
3. Zulfiya Mo`minova “Istiqlol — oltin gulim”
4. Zulfiya Mo`minova „Yonayotgan ayol“ (1993)
5. Zulfiya Mo`minova „Azizim, baxtiyorman“ (1997)
6. Zulfiya Mo`minova „Qudratli yurtimga“ (1997)
7. Zulfiya Mo`minova „Birinchi o‘qituvchim“
8. Zulfiya Mo`minova „Nikoh shartnomasi“
9. Zulfiya Mo`minova „Ayolga baxt bering“, „Bir kun dars qoldirgan bir umr pushaymondir“
10. Zulfiya Mo`minova „Nikoh shartnomasi“ kabi kitoblar muallifi.